

TILDA TERMINLARNING VOQELANISHI VA TARAQQIYOTI*Qurbanova Go‘zal Xo‘jamurodovna**Denov tadbirkorlik va pedagogika
instituti tayanch doktoranti*

Annotation. Ushbu maqolada terminlarning hosil bo‘lish yo‘llari va ularning semantik taraqqiyoti tahlil qilinadi. Morfologik, sintaktik va semantik usullarning termin shakllanishidagi roli misollar bilan yoritilib, ularning qo‘llanilish doirasi va mazmunan o‘zgarishi o‘rganiladi. Lingvistik tahlil metodlari asosida olingan natijalar terminlogiya va turli fan sohalarida terminlarni shakllantirish va rivojlanadirish jarayonlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: termin, terminlogiya, morfologik usul, sintaktik usul, semantik taraqqiyot, affiks.

Аннотация. В статье анализируются способы образования терминов и их семантическое развитие. На примерах иллюстрируется роль морфологических, синтаксических и семантических факторов в образовании терминов, исследуются сфера их применения и изменения в значении. Результаты, полученные на основе методов лингвистического анализа, позволяют глубже понять процессы образования и развития терминов в терминологии и различных научных областях.

Ключевые слова: термин, терминология, морфологический метод, синтаксическое образование, семантическое метод, аффикс.

Annotation. This article analyzes the ways in which terms are formed and their semantic development. The role of morphological, syntactic and semantic factors in term formation is illustrated with examples, and their scope of application and changes in meaning are studied. The results obtained on the basis of linguistic analysis methods serve to provide a deeper understanding of the processes of formation and development of terms in terminology and various scientific fields.

Keywords: term, terminology, morphological method, syntactic method, semantic development, affix.


KIRISH. Bugungi rivojlanayotgan davrda ilm-fan va texnologiyaning jadallik bilan o‘sishi natijasida barcha sohalarda yangi-yangi terminlar paydo bo‘lmoqda. Shiddat bilan tilimizga turli tillardan, jumladan, ingliz tilidan yangi so‘zlar va terminlar – umuman olganda, neologizmlar kirib kelmoqda. Ushbu yangi terminlarning kelib chiqishini o‘rganish, ularning lingvistik xususiyatlarini aniqlash va tasniflash tilshunoslik fanining muhim vazifalaridan biridir. Turli sohalardagi terminlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi, balki o‘sha fan doirasidagi talab va ehtiyoj yuzasidan

yaratiladi. Terminlar, asosan, biror fan yoki kasb-hunar sohasini chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi hamda o‘sha soha taraqqiyotiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O‘zbek tilining izohli lug‘atida terminga quyidagicha ta’rif beriladi: *Termin* - (lotincha terminus – chek, chegara) fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasi. Masalan: *botanika terminlari, zargarlik terminlari*. [6,74]

Termin – kishi faoliyatining ma’lum bir sohasida qo’llaniladigan maxsus so‘z va iboralardir.[7,57] Termin predmet, voqeа-hodisalar haqidagi tushunchaning aniq va turg‘un ifodasidir. Terminga fan va texnikaga oid tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar va iboralarga emas, shu bilan birgalikda, ma’lum kasb-hunarga oid so‘z va iboralar ham kiradi. Masalan, qurilish sohasida: *monolit, beton, fundament, armatura; qishloq xo‘jaligida: gektar, seleksiya, agrosanoat, melioratsiya*.

Demak, terminlar tildagi oddiy so‘zlardan yoki leksik birlıklardan farq qiladi, ularda ma’no aniq va chegaralangan bo‘lishi lozim. Terminlarni umumiylug‘at tarkibiga kiruvchi so‘z va iboralardan farqlash uchun ularning muhim xususiyatlarini bilish lozim. Umuman olganda, termin tushunchasi ikki asosiy belgiga ega. 1- rasmda terminning asosiy xususiyatlari keltirilgan:



1-rasm. Terminning asosiy belgilari.

1. Terminlarning aniq va bir ma’noliligi.

Terminlar kundalik hayotimizda foydalaniladigan so‘zlardan farqli xususiyatga ega bo‘ladi. Masalan, *uchburchak* termini har doim uch tomoni va uch burchagi bo‘lgan geometrik shaklni bildiradi. Ushbu terminni ko‘p ma’noli qilib ishlatish imkonsiz.


2. Terminlarning muayyan sohaga tegishliligi.

Terminlar faqat o‘zi tegishli bo‘lgan sohadagina terminlik xususiyatiga ega bo‘ladi. Misollarga yuzlanadigan bo‘lsak, *volt* – fizikada elektr kuchlanish o‘lchov birligini ifodalaydi. Bu termin adabiyot yoki san’at sohasida ishlatilmaydi. **Fotosintez** - o‘simliklarning quyosh nuri yordamida ozuqa moddalarini sintez qilish jarayoni. Faqat biologiyada ishlatiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Rus olimi V.P.Danilenko fikricha, tilda terminlarning hosil bo‘lish jarayoni uch xil usul orqali amalga oshiriladi: semantik, sintaktik va morfologik. [4,50] Xususan, eng faol tarzda qo‘llanuvchi yo‘l bu so‘z yasashdir. So‘z yasash usulining ham ikki xil shakli mavjud:

- 1) *morfologik* – so‘z yasovchi affikslar yordamida;
- 2) *sintaktik* – ikki asosning birikishi orqali termin hosil qilishdir.

-ma affiksi ko‘plab fan sohalaridagi terminlarni yasashda keng tarzda qo‘llaniladi. Xususan, -ma yordamida yasalgan quyidagi tibbiy terminlarni uchratish mumkin: *toshma*, *bo‘g‘ma*, *terlama*, *qichima*, *o‘sma*. Ushbu kasallik nomlarini ifodalovchi terminlar fe’l asosli so‘zlarga qo‘shilib hosil bo‘lgan.



3-rasm. **-ma** affiksi orqali hosil bo‘lgan terminlar.

Sintaktik usul orqali termin yasashda ikki yoki undan ortiq asosning birikishidan yangi termin hosil bo‘ladi. Bunday xususiyatga ega terminlar *qo‘shma terminlar* deb ham ataladi. [5,76-77]

Qo‘shma terminlarning leksik-morfologik jihatdan tasniflanishini quyidagi misollarda ko‘rib chiqamiz:

№	Tuzilishi	Misollar
1.	Ot+ot modelli qo‘shma terminlar	<i>qon bosimi</i> , <i>ko‘z nuri</i> , <i>bosh og‘rig‘i</i> , <i>tomoq og‘rig‘i</i> , <i>suyak bo‘g‘imi</i>
2.	Sifat+ot modelli qo‘shma terminlar	<i>surunkali bronxit</i> , <i>yuqori harorat</i> , <i>allergik reaksiya</i> , <i>o‘tkir respirator kasallik</i>

3.	Son+ot modelli qo'shma terminlar	<i>to 'rtburchak, beshburchak, qirqoyoq, mingboshi</i>
4.	Ot+fe'l modelli qo'shma terminlar	<i>qon aylanishi, suv bug'lanishi, modda almashinuvi, hujayra bo'linishi.</i>

4- jadval. Sintaktik usul bilan yasalgan terminlar.

O'zbek tili terminologiyasida **semantik yo'lli** bilan shakllangan terminlar ham muhim o'rinn tutadi. Bunda biz *metafora* usuli orqali hosil bo'lgan terminlarni nazarda tutamiz. So'z ma'nosining ko'chishi metafora (tashqi o'xshashlik), vazifadoshlik (vazifadagi o'xshashlik), metonimiya (o'zaro bog'liqlik) va sinekdoxa (qism bilan butun munosabati) kabi hodisalarini o'z ichiga oladi. [7,21] So'z ma'nosi ko'chganda, uning asl ma'nosi inkor etilmaydi, balki unga qo'shimcha yangi ma'no qo'shiladi. Natijada, so'zning ma'no doirasi kengayadi. Semantik usul bilan hosil bo'lgan terminlarga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

- **tashqi yoki shakliy o'xshashlikka asosan:**

- 1) *ko'richak* (bu ichakning bir qismi bo'lib, uning bir uchi berk bo'lgani uchun "ko'r" so'zi bilan bog'langan);
- 2) *tishli g'ildirak* (tashqi ko'rinishi tishga o'xshaganligi uchun shunday nomlangan);
- 3) *kompyuter sichqonchasi* (shakli va harakatlantirish usuli sichqonga o'xshaganligi sababli shunday atalgan);
- 4) *qora tuynuk* (yorug'likni yuta oladigan va ko'zga ko'rinxaydigan koinotdagi obyekt bo'lib, tuynukka o'xshaganligi sababli shunday nom berilgan).

- **vazifadoshlik asosida:**

- 1) *energiya iste'moli* (odatda, "iste'mol" so'zi oziq-ovqat yoki boshqa resurslarga nisbatan ishlatilsa-da, bu yerda elektr energiyasining sarflanishiga nisbatan qo'llanilgan);
- 2) *kompyuter xotirasi* (inson xotirasi bilan bog'liq tushuncha bo'lib, axborotni saqlash va qayta ishslash xususiyatiga ega bo'lgani uchun shunday nomlangan);
- 3) *ekran pardasi* (parda harakatni cheklovchi va ajratuvchi element bo'lib, ekrandagi tasvirni yashirish yoki almashtirish funksiyasida foydalilanilgani uchun shunday nomlangan).

- **rang-tusdagi o'xshashlik asosida:**

- 1) *oq qon tanachalari* (mikroskop ostida oq rangga o'xshashligi sababli shunday atalgan);
- 2) *qizil qon tanachalar* (tarkibidagi gemoglobin moddasi tufayli qizil rangda bo'lgani uchun shunday nom berilgan);

3) *sariq kasallik* (jigar kasalliklarida terining sarg‘ayishi kuzatilgani sababli shu nom bilan yuritiladi).

Demak, semantik usul terminlar hosil bo‘lishida, ayniqsa, tibbiy terminlarni shakllantirishda asosiy rolni bajaradi.

Til va terminologiyaning rivojlanishi jarayonida ba’zi terminlar dastlab faqat bir sohada qo‘llanilib, keyinchalik boshqa sohalarga ham o‘tib, kengroq ma’no kasb etadi. Bunday jarayon *terminlarning semantik rivojlanishi* yoki *ma’no taraqqiyoti* deb ataladi. Bu hodisa ko‘pincha ilm-fan va texnologiyaning taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lib, yangi tushunchalarini ifodalash zarurati tufayli yuzaga keladi. Bunga misol sifatida *virus* terminini keltirish mumkin. Ushbu termin dastlab tibbiyot sohasida qo‘llanilgan bo‘lsa-da, keyinchalik axborot texnologiyalariga ham kirib kelgan va faol tarzda qo‘llanilmoqda.


O‘zbek tilining izohli lug‘atida virusga quyidagicha ta’rif beriladi: **Virus** (lot. virus – o‘simlik shirasi, zahar) - faqat tirik hujayralarda ko‘payib, odam, hayvon, o‘simliklarda yuqumli kasalliklar qo‘zg‘atuvchi mikroorganizm. [7,462] Virus termini dastlab tibbiyot sohasida qo‘llangan. Tibbiy termin sifatida u mikrobiologiyada paydo bo‘lgan bo‘lib, bakteriyalardan ham kichikroq yuqumli zarrachalarni ifodalash uchun ishlataladi. Tibbiyotda, *hepatit virusi*, *elbola virusi*, *gerpes virusi* singari terminlarni uchratish mumkin.

Zamon taraqqiy etishi bilan, ushbu terminning axborot texnologiyalari sohasiga ham ma’nosи ko‘chib keng qo‘llanilishini kuzatamiz. Kompyuter dasturlariga zarar yetkazadigan yoki ularning ishlashini sekinlashtiradigan maxsus dasturiy ta’mot *virus* deb ataladi. Taqqoslaydigan bo‘sak, tibbiyotda organizmga zarar yetkazadigan kichik mikroorganizmlar virus deb atalmoqda, axborot olamida esa kompyutering ishlashiga xalal beruvchi kichik dastur bu virusdir. Demak, bu yerda terminning ma’nosи vazifadoshlik asosida ko‘chgan, ya’ni virus bajaradigan vazifa – *zarar yetkazish*.

Yana bir misol tariqasida tilimizda keng qo‘llaniladigan termin **operatsiyani** olishimiz mumkin. Operatsiya termini, dastlab tibbiyot termini sifatida yuzaga kelgan bo‘lsa, hozirda uning ma’nosи ancha kengaygan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida termin quyidagicha izohlanadi:

1. *Tibbiyot sohasida*: Ba’zi kasalliklarni davolash maqsadida kasallangan joyni jarrohlik yo‘li bilan yorish, kesish, tikish. Ko‘z *operatsiyasi*, *operatsiya stoli*. [7,130]
2. *Harbiy sohada*: Biror maqsadni ko‘zlab yoki biror operativ yoki strategik vazifani bajarish uchun yagona reja bo‘yicha va kelishilgan vaqtida olib boriladigan jang harakatlari majmui. *Jangovar operatsiya*, *operatsiya kartasi*. [7,130]

3. *Iqtisodiyot sohasida:* Savdo, moliya, pochta, sanoat, kompyuter, sug‘urta va boshqalar bilan bog‘liq vazifalarni bajarishga qaratilgan faoliyat yoki xatti-harakat. *Bank operatsiyalari.* [7,21]



5-jadval. *Operatsiya* terminining semantik taraqqiyoti.

XULOSA. Terminning turli sohalardagi ma’nolariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, o’xshashlik ko‘zga tashlanishi tabiiy. Asl mazmun-mohiyat saqlangan holda, ma’noning kengayishi, ya’ni terminning faqat bitta fan tarmog‘ida emas, balki boshqa sohalarda ham qo’llanilishi kuzatilgan.

Demak, terminlarning yasalishi va taraqqiyoti haqidagi tahlillarimizni yakunlab, quyidagi xulosalarni chiqaramiz:

- 1) tilimizda terminlar uch xil yondashuv asosida shakllanadi: morfologik, sintaktik va semantik;
- 2) tilda terminlarning hosil bo‘lishi va taraqqiy etish jarayoni, uning ijtimoiy, ilmiy va madaniy rivojlanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi;
- 3) terminlar yangi ilmiy kashfiyotlar, texnologik yutuqlar va ijtimoiy ehtiyojlar natijasida shakllanib, sohalar o‘rtasidagi samarali muloqotning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi;
- 4) vaqt o‘tishi bilan, terminlar o‘z ma’nosini kengaytiradi, yangi kontekstlarda ishlatila boshlaydi va ba’zan eski ma’nolarini yo‘qotib, yangilari bilan to‘ldiriladi.
- 5) terminlarning bir xil, aniq va to‘g‘ri qo’llanilishi soha taraqqiyotini tezlashtiradi, ilmiy tadqiqotlarni yangi bosqichlarga olib chiqadi va umuman olganda, insoniyatning global rivojlanishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Труды МИФЛИ. Т.%. Сборник статей по языкоzнанию. - М., 1961.-С.3-10.
2. Герд А.С. Значение термина и научное знание//Научно техническая информация. Серия 2.-М.,1991. №10.- С.1-4.
3. Даниленко В.П. Об основных лингвистических требованиях к стандартизируемым терминам//Семиотические проблемы языков науки, терминологии и информатики.- М.: МГУ,1971.
4. Даниленко В.П. Лексика языка науки. Терминология: Диссертация на соиск. уч. степени доктора филол. наук / Даниленко В.П. – М., 1976.
5. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. Toshkent: 2019, 54-b.
6. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. -М.: АН СССР, 1961.
7. Ҳозирги замон ўзбек тили лексикаси. – Тошкент, 1960. 57-б.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent 74-b.
9. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1978. 21-б.
- 10.Павлова М. Метафоры и когнитивные науки. - М.,1998.